

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR ORASIDA QIZIQISH VA QOBILIYATLARINI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Xo'jayarova Nafisa Normaxamadovna

*Surxondaryo viloyati Uzun tumani 20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
amaliyotchi psixologi*

***Annotatsiya.** Maqolada kichik maktab yoshi o'quvchilarining qobiliyati va qobiliyat psixodiagnostikasini o'rganish shu bilan birga ularning qiziqishlari aniqlash bo'yicha ilmiy va nazariy asoslashga qaratilgan. Bunda psixologiyada qobiliyat va qobiliyat psixodiagnostikasi bo'yicha nazariy tahlillar o'rganilgan hamda kichik maktab yoshi o'quvchilarining psixologik xususiyatlari tahlil qilingan, o'quvchilarning qobiliyat diagnostiklari bilan birgalikda ularning qiziqish darajalari tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf o'quvchilar, kichik maktab yoshi, qobiliyat, qiziqish, psixodiagnostika.*

KIRISH

Har bir odamning qobiliyati va iste'dodi taraqqiyod mahsuli ekanligini hisobga olib, insonning qobiliyati uning tug'ma layoqati asosida, muhitga bog'liq ravishda olayotgan ta'lim tarbiyasiga qarab, shuningdek, kishining o'z ustida ishlashi bilan bog'liq holda o'sib, kamol topib borishini inobatga olgan holda kichik maktab yoshidagi oquvchilarning ijodiy va aqliy qobiliyatlarini erta yoshdayoq tashxislash ya'ni diagnostika qilish bu bolaning rivojlanish ko'rsatkichlarini ochib berishi bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Bir necha yillar davomida o'rganilib kelingan bilimlar olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, aqliy qobiliyatning rivojlanishini bir necha ko'rinishlari namoyon etilgan: talim va tarbiya ta'sirida o'zgaradigan va

rivojlanadigan qobiliyatning individual uslubi (V.S.Merlin, Ye.A.Klimov, N.I.Chuprikova), chet el psixologiyasida aqliy qobiliyat ko'p faktorli murakkab psixologik tuzilma (A.Bine, J.Piaje, Ch.Spirmen, Tyorstoun, Gilford, G.Ayzenk, R.B.Kettell, R.Sternberg) sifatida tadqiq etilgan. Shuningdek, bu boradagi mahalliy olimlar M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, E.Z.G'oziyev, V.M.Karimova, E.Z.Usmonova, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonovalarning izlanishlari hamda mutafakkirlarimiz Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Abdulla Avloniy va boshqalarning fikrlarida aqliy taraqqiyot, aql imkoniyatlari va aqliy qobiliyatlar to'g'risidagi qarashlarida ham aqliy qobiliyat va uni tashkil etuvchi omillar turlicha talqin qilingan.

F.A.Gallning fikricha, odamning hamma qobiliyatlari "aql" va "qobiliyat" sifatlarini miya yarim sharlarida o'zining maxsus qat'iy markazlariga ega, ya'ni busifatlarning taraqqiyot darajasi miya tegishli qismlarining miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Shuning uchun odamning kalla suyagiga bir qarash yoki boshidagi do'mboqchalarni shunchaki paypaslab ko'rish orqali go'yo odamning qobiliyatlarini aniqlasa bo'ladi. O'z tadqiqotlarida rus psixologi A. G. Kovalev qobiliyatning tabiati va tashxis qilish yo'llarini tekshirishga muvaffaq bo'lgan.

M.G.Davletshin texnikaviy qobiliyat ustida tadqiqot ishlari olib borgan yetakchi mutaxassisdir. U texnikaviy qobiliyat deganda shaxsning individual psixik xususiyatlaridan tuzilgan shunday o'ziga xos birikmalarni tushunadiki, u shaxsning texnikaviy faolityaga yaroqlilik darajasini va u bilan muvaffaqiyatli ravishda shug'ullana olishini aniqlaydi.

Kichik maktab davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola maktab o'quvchilariga quyiladigan turli talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga etadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining utkirligi, ravshanligi, sofliqi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining yorkinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yakkolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan

bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barkaror bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxs bo'lib shakllanishidagi o'rni nixoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida inson ongining turli asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashk kildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yanga munosabat tizimiga o'tadi. U hayotining tubdan o'zgarganini, unga yangi majburiyatlar, nafaqat, har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga buysunish ham yuklatilganligini xis eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuklari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotgailigi, unga qilinayotgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavkei o'zgarganligini tula xis . Etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos bo'ladi, Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taksimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanishga urgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslaxatlashadigan yangi bir urinni egallaydi. O'quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi.

Biz o'quvchilarni qobiliyatlari va qiziqishlari bilan mutanosiblik masalasini psixologik tadqiq etishda dastlab o'quvchilarning kasb bo'yicha tasavvurlarini tahlil qilishga e'tibor qarattik. Mazkur vazifani amalga oshirishda maqsadida tadqiqot ishlari olib bordik Boshlang'ich sinf o'quvchilarning intellektual qobiliyat turlari bo'yicha tana-kinestetik va ekzistensial yoki ma'naviy qobiliyat yo'nalishda yuqori ko'rsatkich natijalarni egallan bo'lib ushbu yo'nalish bo'yicha o'quvchilarning shaxs sifatida ijobiy xislatlarga ega, ammo unchalik faol emaslar. O'quvchilarni qobiliyatni aniqlash natijalariga asosan kichik maktab yoshi

o'quvchilarda musiqiy qobiliyat hamda ko'rish qobiliyat yo'nalishdagi qobiliyatlar yaqqol namoyon bo'lgan.

Natijalar tahliliga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarning kasbiy qiziqishlari asosan ularda "odam-odam" va "odam-badiy obraz" tipga mansubligi aniqlangan bo'lsada, ularda tabiiy va aniq fanlarga, xususan, matematikaga nisbatan qiziqishlari sustroq ekanligi ko'rsatilgan.

Ta'kidlash lozimki qiziqishlar shaxs tuzilmasining tarkibiy qismlaridan biri ekanligini inobatga olinsa, tahlil natijalar asosan o'quvchilarning qobiliyatlari bilan kasbiy shakllanishi jarayonidagi qiziqishlari orasida o'zaro moslik tarkib topmagan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyati va kasbiy qiziqishlari bilan faoliyat yo'nalishlarining barcha jabhalari o'rtasida manfiy bog'lanish aniqlangan, bu kasb tanlashda o'quvchilarning yo'l qo'yadigan kamchiliklarini bartaraf etishga, kasb tanlash va kasbiy shakllanish jarayonlarini optimallashtirishga yordam beruvchi psixologik omillarni inobatga olish kerakligini anglatadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning qobiliyatlarini diagnostika qilish o'quvchilarga o'z shaxsiy va kasbiy qobiliyatini to'g'ri belgilashlariga, har bir o'quvchining shaxsiyatini adekvat baholash, qobiliyat va qiziqishlarini aniqlash, ular o'rtasidagi mutanosibliklarga e'tibor qaratish kichik yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini chuqur bilish asosida ularning har biri bilan konstruktiv munosabatlar o'rnatish imkonini beradi hamda ular o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida qo'llanilishi mumkin. Pedagoglar o'quvchilar qobiliyati, qiziqishlarini aniqlab, undan o'z darslarida foydalanishi kerak ekanlik xulosasini beradi. Kichik maktab yoshi o'quvchilarining qobiliyatlar va qiziqishlarini aniqlash va natijalarni tahlil qilish uzluksiz hamda bir-birini to'liq izchilligini taqazo etadigan jarayonligini xisobga olib, ushbu jabhalarning har biri yuzasidan ilmiy izlanishlarga doimo zarurat tug'iladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. Toshkent shahri, 29 aprel 2019 yil, PF-5712-son.
2. G'oziev.E. Ontogenez psixologiyasi o'quv qo'llanma Toshkent "NIF MSH"
2020
3. Davaetshin M.G., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya, Toshkent 2002.
4. M.G. Davaetshin, Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlanov, S.To'ychieva. «Yosh va pedagogik psixologiya» o'quv metodik qo'llanma Toshkent 2004 yil 12. Graficheskie metodo`v psixologicheskoy diagnostike. E.S. Romanova., O.F. Potyomkina-M., 2012.
5. Davletshin. M. Psixologiyadan asosiy tushunchalar. –T., 2017.
6. Mamedov K "Maktabgacha yoshidagi bolalar va o'quvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlariya" Toshkent. 2004 -yil.
7. Дилмуродова З. Развитие способностей детей младшего школьного возраста //Актуальные проблемы обучения социально-гуманитарных наук в медицинском образовании. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 487-493.
8. Dilmurodova, Z. D. (2023). Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va ularning qobiliyat darajalari aniqlash. *Научные исследования и общественные проблемы*, 1(1), 33-37.
9. Dilmurodova, Z. (2023). Bola qobiliyatini barvaqt aniqlash muhim!. *Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations 2023 Prague, Czech*.
10. Bekmurodovna, Z. D. (2022). Matematik tushunchalarning ta'riflash metodikasi. *Journal of new century innovations*, 11(5), 173-175.
11. Dilmurodova, Z. D. (2022). Psixologiyada qobiliyat muammosi. Актуальные проблемы обучения, 1(2), 15-25.

12. Jumayevich, E. N., & Talipjanovna, M. N. (2023). Characteristics of implementing the cluster approach in the educational system. *International Journal of Pedagogics*, 3(02), 44-47.
13. Ходжамкулов, У. Н., Мадгапилова, НТ (2020). Необходимость и условия формирования кластера педагогического образования (на примере системы образования Узбекистана). *Европейский журнал исследований и рефлексии в образовательных науках*, (8), 4.
14. Madgapilova, N. T. (2023). Social-psychological cooperation of educational organizations and theoretical basis of the cluster approach. *Экономика и социум*, 11(114), 554-560.
15. Madgapilova, N. T. (2022). Kasbiy kompetetlik o'rganish ijtimoiypsixologik fenomen sifatida. *Development and innovations in science*, 1(1), 7-12